









JIZZAX VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2022- yil yanvar-iyun oylari uchun dastlabki ma'lumot)

O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2022- yilning yanvar-iyun oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 349,0 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 130,2 mln. AQSh dollariga ko'paydi va 159,5 % ni tashkil etdi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI (yanvar-iyun, mln. AQSh dollari)

	2021- yil	2022- yil	O'sish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan, % da
Tashqi savdo aylanmasi	218,8	349,0	159,5	x
Eksport 	91,9	108,1	117,7	100,0
 tovarlar	91,7	107,9	117,7	99,8
 xizmatlar	0,2	0,2	100,0	0,2
Import 	126,9	240,9	189,8	100,0
 tovarlar	126,9	240,9	189,8	100,0
 xizmatlar	0,0	0,0	0,0	0,0
Saldo 	-35,1	-132,8	x	x

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini **shakllantirishda**, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

TSA da eksport hajmi 108,1 mln. AQSh dollariga (17,7 % ga oshdi) va import hajmi 240,9 mln. AQSh dollariga (89,8 % ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida -132,8 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.



JIZZAX VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR
(2022- yil yanvar-iyun, mln. AQSh dollari, ulushi,% da)

Top-10 davlatlar	TSA	Eksport	Import	Ulushi, % da
Koreya	77,4	0,1	77,3	22,2
Xitoy	64,9	17,1	47,8	18,6
Turkiya	51,3	30,8	20,5	14,7
Rossiya Federatsiyasi	44,8	22,3	22,5	12,8
Litva	42,1	0,1	42,0	12,0
Qozog'iston	20,7	13,1	7,6	5,9
Qirg'iziston	6,6	3,5	3,1	1,9
Germaniya	5,9	2,7	3,2	1,7
Italiya	4,9	3,9	1,0	1,4
Afg'oniston	3,8	3,5	0,3	1,1

Viloyatimiz jahonning 60 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Koreyada (22,2 %), Xitoy Xalq Respublikasida (18,6 %), Turkiyada (14,7 %), Rossiya Federatsiyasida (12,8 %), Litva (12,0 %), Qozog'istonda (5,9 %), Qirg'izistonda (1,9 %), Germaniyada (1,7 %), Italiyada (1,4 %) va Afg'oniston (1,1 %) qayd etilgan.

Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun viloyatda zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga import tovarlarning o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

TSA da so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA da MDH davlatlari orasida Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda. Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Koreya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi va Turkiya hissasiga to'g'ri kelgan.

Rossiya Federatsiyasi
13,1 mln. AQSh dollari



Qozog'iston
6,8 mln. AQSh dollari



Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 dan ortiq yirik hamkor-davlatlar orasidan 10 ta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Xitoy Xalq Respublikasi (56,7 mln. AQSh dollari), Koreya (54,1 mln. AQSh dollari), Turkiya (45,8 mln. AQSh dollari), Rossiya Federatsiyasi (36,1 mln. AQSh dollari), Litva (23,4 mln. AQSh dollari), Qozog'iston (18,5 mln. AQSh dollari), Qirg'iziston (4,8 mln. AQSh dollari), Germaniya (4,7 mln. AQSh dollari), Italiya (4,3 mln. AQSh dollari) va Ukraina (3,7 mln. AQSh dollari) shular jumlasidandir. Qolgan davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



**JIZZAX VILOYATINING 20 TA YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN
TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI
(2022-yil yanvar-iyun, mln. AQSh dollari)**

Davlat nomi	2020- yil	2021- yil	2022- yil
Koreya Respublikasi	7,5	34,0	77,4
Eksport	0,0	0,0	0,1
Import	7,5	34,0	77,3
Saldo	-7,5	-34,0	-77,2
Xitoy Xalq Respublikasi	85,1	67,7	64,9
Eksport	6,0	28,1	17,1
Import	79,1	39,6	47,8
Saldo	-73,2	-11,4	-30,8
Turkiya	27,6	32,7	51,3
Eksport	12,9	17,3	30,8
Import	14,8	15,4	20,5
Saldo	-1,9	2,0	10,3
Rossiya Federatsiyasi	22,9	29,1	44,8
Eksport	13,6	20,9	22,3
Import	9,3	8,2	22,5
Saldo	4,2	12,8	-0,2
Litva	25,5	4,0	42,1
Eksport	0,0	0,0	0,1
Import	25,5	4,0	42,0
Saldo	-25,5	-4,0	-41,9
Qozog'iston	6,9	15,2	20,7
Eksport	5,9	7,8	13,1
Import	1,0	7,4	7,6
Saldo	5,0	0,4	5,5



Davlat nomi	2020- yil	2021- yil	2022- yil
Qirg'iziston	2,3	2,9	6,6
Eksport	2,3	2,1	3,5
Import	0,0	0,8	3,1
Saldo	2,2	1,3	0,5
Germaniya	1,9	2,0	5,9
Eksport	0,0	0,1	2,7
Import	1,9	1,9	3,2
Saldo	-1,9	-1,9	-0,5
Italiya	2,2	2,9	4,9
Eksport	1,0	2,9	3,9
Import	1,2	0,1	1,0
Saldo	-0,1	2,8	2,9
Afg'oniston	0,6	2,4	3,8
Eksport	0,6	2,3	3,5
Import	0,0	0,1	0,3
Saldo	0,6	2,3	3,2
Ukraina	0,6	2,4	3,8
Eksport	0,6	2,3	3,5
Import	0,0	0,1	0,3
Saldo	0,6	2,3	3,2
Pokiston	0,5	4,3	3,6
Eksport	0,5	4,2	1,4
Import	0,0	0,0	2,2
Saldo	0,5	4,2	-0,8
Tojikiston	3,2	2,5	3,1
Eksport	3,2	2,0	1,6
Import	0,0	0,5	1,5
Saldo	3,2	1,5	0,1




Davlat nomi	2020- yil	2021- yil	2022- yil
Polsha	0,8	1,4	2,8
Eksport	0,8	0,7	2,7
Import	0,0	0,7	0,1
Saldo	0,8	0,0	2,6
Hindiston	0,8	1,7	2,4
Eksport	0,1	0,2	0,7
Import	0,7	1,5	1,7
Saldo	-0,5	-1,2	-1,0
Eron	0,9	2,2	2,0
Eksport	0,2	1,0	0,7
Import	0,7	1,2	1,4
Saldo	-0,6	-0,3	-0,7
Belarus	1,8	1,1	1,1
Eksport	0,5	0,2	0,3
Import	1,3	0,9	0,8
Saldo	-0,9	-0,8	-0,5
Gruziya	1,0	0,2	0,7
Eksport	0,2	0,0	0,2
Import	0,8	0,1	0,5
Saldo	-0,5	-0,1	-0,3
Kanada	0,0	0,0	0,6
Eksport	0,0	0,0	0,6
Import	0,0	0,0	0,0
Saldo	0,0	0,0	0,6
Turkmaniston	0,7	0,2	0,6
Eksport	0,2	0,0	0,3
Import	0,5	0,2	0,3
Saldo	-0,3	-0,1	-0,1

Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlarga tayanib, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 23,2 % ni tashkil etib, 2021- yilning shu davriga nisbatan ulushi 0,8 % ga kamaydi.



JIZZAX VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI
(2022- yil yanvar-iyun, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)




Boshqa xorijiy davlatlarning 2022- yil yanvar-iyun oylarida tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 76,8 % tashkil etib, 2021- yilning shu davriga nisbatan 0,8 % ga ko'paydi.

JIZZAX VILOYATINING EKSPORTI (2022- yil yanvar-iyun)

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning eksportyorlari soni 113 tani tashkil etib, ular tomonidan 108,1 mln. AQSh dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2021- yilning mos davriga nisbatan 17,7 % ga oshdi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,8 % ni tashkil etib, sanoat tovarlari (58,2 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (24,3 %), turli xil tayyor buyumlar (9,6 %), noziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari (2,3 %), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (4,5 %), mashina va asbob-uskunalari (0,8 %), xizmatlar (0,2 %), hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar (0,1 %) guruhi hissasiga to'g'ri kelmoqda.





**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI
(2022- yil yanvar- iyun, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)**

XSST tarkibi	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mln. AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mln. AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da
Jami eksport	108,1	117,7	100,0	41,7	122,1	100,0	66,4	115,1	100,0
<i>shu jumladan:</i>									
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	26,3	190,6	24,3	9,5	158,6	22,8	16,8	2,2 m.	25,3
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	2,5	111,8	2,3	1,2	2,0 m.	2,8	1,4	81,7	2,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,1	13,9m	0,1	0,1	12,8m	0,1	0,0	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	4,9	146,1	4,5	0,7	72,5	1,6	4,2	174,7	6,3
Sanoat tovarlari	62,9	100,8	58,2	19,2	114,3	46,0	43,7	95,8	65,9
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	0,8	137,8	0,8	0,6	127,5	1,5	0,2	193,6	0,3
Turli xil tayyor buyumlar	10,4	112,5	9,6	10,3	112,0	24,7	0,0	0,0	0,1
Boshqa tovarlar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Xizmatlar	0,2	110,2	0,2	0,2	103,3	0,4	0,0	142,8	0,1

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo'nalishi bo'yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi sanoat tovarlari guruhiga to'g'ri kelmoqda, eksport hajmi bo'yicha keyingi o'rinlar oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar guruhi hissasiga to'g'ri kelmoqda.



EKSPORT TARKIBI DINAMIKASI
(2022-yil yanvar-iyun, % da)

XSST tarkibi	2020- yil	2021- yil	2022- yil
Jami	100,0	100,0	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	19,1	15,0	24,3
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	2,3	2,6	2,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,0	0,0	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,8	0,0	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	1,9	3,6	4,5
Sanoat tovarlari	62,1	68,0	58,2
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	1,0	0,6	0,8
Turli xil tayyor buyumlar	12,4	10,0	9,6
Boshqa tovarlar	0,0	0,0	0,0
Xizmatlar	0,4	0,2	0,2

2022- yilning yanvar-iyun oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida sezilarli o'zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta'kidlash joizki, 2021- yilning yanvar- iyuniga nisbatan sanoat tovarlari guruhida kamayish kuzatildi.



**XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR
EKSPORTI TARKIBI
(2022- yil yanvar-iyun)**


XSST bo'limi nomi	Mln. AQSh dollari	2021- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	21,9	2,0 m.
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	4,0	179,7
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	0,01	1,0
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	0,3	105,2
Shakar va shakarli mahsulotlar	0,1	3,5 m.
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	0,0	0,0
Tamaki va tamaki mahsulotlari	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	1,4	86,1
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	0,0	0,0
Metall rudalari va metall parchalari	0,03	27,4
Qog'oz massasi va makulatura	0,1	15,3 m.
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	0,1	142,6
Yog' urug'lari	0,9	2,2 m
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Tabiiy yoki sun'iy gaz	0,0	0,0
Elektr toki	0,0	0,0
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	0,0	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	0,1	0,0

Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Noorganik kimyo moddalari	0,0	0,0
Birlamchi shakldagi plastmassalar	0,0	0,0
O'g'itlar	2,1	151,7
Boshqa joyda tafsiflanmagan kimyoviy mahsulotlar	0,1	2,9 m.
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	2,1	134,9
Birlamchi bo'lmagan plastik	0,6	173,7
Sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	57,2	99,1
Yog'ochdan tayyorlangan buyumlar	0,0	0,0
Cho'yan va po'lat	0,0	0,0
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	5,5	126,4
Metaldan tayyorlangan buyumlar	0,2	90,8
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Avtomobillar	0,0	0,0
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	0,6	102,4
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	0,03	67,2
Muayyan tarmoqlar uchun maxsus ishlab chiqarilgan mashinalar	0,2	70,2 m.
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	0,0	0,0
Turli xil tayyor buyumlar		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	10,1	110,0
Poyabzal	0,3	583,5 m.
Har xil tayyor buyumlar	0,02	47,2
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebellar	0,0	0,0

O'tgan yilga nisbatan umumiy eksport hajmi oshdi va MDH mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi 2021-yil yanvar-iyun oylaridagi 23,8 % dan, 2022-yilning yanvar– iyun oylarida 24,7 % ga ko'paydi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi 2021- yilning shu davrida 76,2 % ni tashkil etib, 2022- yilning yanvar- iyun oyida 75,3 % ga kamaydi.




MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTINING HAJMLARI DINAMIKASI
(yanvar-iyun, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



2022- yilning yanvar-iyun oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida, Turkiya (28,5 %), Rossiya Federatsiyasi (20,6 %), Xitoy Xalq Respublikasi (15,8 %), Qozog'iston (12,1 %), Italiya (3,6 %) va Afg'oniston (3,2 %) davlatlari egallab turibdi, hamda ularning jami eksportdagi ulushi 83,8 foizni tashkil etmoqda.



**VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR
DAVLATLARNING ULUSHI
(2022- yil yanvar-iyun, % da)**



2022- yilning yanvar-iyun oylarida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlardan Turkiya yetakchi mavqeyini saqlab turibdi. Keyingi holatda Rossiya Federatsiyasi egalladi. Xitoydan ozgina ortda qolib, uchinchi pog'onani, Qozog'iston esa to'rtinchi pog'onani egallab turibdi.

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida hamkor mamlakatlarning tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha geografiyasi (2021- yilning mos davriga nisbatan 22 ta davlat) 31 ta davlat bilan amalga oshdi.



**JIZZAX VILOYATINING 20 TA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA
AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI
(2022 yil yanvar-iyun, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)**

Davlatlar	Mln. AQSh dollari		Jami eksportga nisbatan ulushi va o'sish sur'ati % da		O'rni	
	2021- y.	2022- y.	O'tgan yilga nisbatan, % da	Ulushi	2021- y.	2022- y.
Turkiya	17,3	30,8	177,6	28,5	3	1
Rossiya	20,9	22,3	106,6	20,6	2	2
Xitoy	28,1	17,1	60,7	15,8	1	3
Qozog'iston	7,8	13,1	167,2	12,1	4	4
Italiya	2,9	3,9	136,1	3,6	11	5
Qirg'iziston	2,1	3,5	171,4	3,3	5	6
Afg'oniston	2,3	3,5	148,9	3,2	7	7
Polsha	0,7	2,7	4,0 m.	2,5	6	8
Germaniya	0,1	2,7	48,3 m.	2,5	10	9
Tojikiston	2,0	1,6	82,0	1,5	13	10
Pokiston	4,2	1,4	33,1	1,3	18	11
Hindiston	0,2	0,7	2,8 m.	0,6	8	12
Eron	1,0	0,7	70,3	0,6	0	13
Kanada	0,0	0,6	0,0	0,6	12	14
Ispaniya	0,2	0,4	2,3 m.	0,4	15	15
Peru	0,0	0,4	0,0	0,4	19	16
Chili	0,0	0,4	0,0	0,3	0	17
Ukraina	0,7	0,3	44,4	0,3	0	18
Belarus	0,2	0,3	170,8	0,3	0	19
Turkmaniston	0,0	0,3	7,2 m.	0,3	0	20

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, sanoat tovarlari hamda nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari guruhlar kiradi.



**VILOYATNING AYRIM DAVLATLAR BILAN EKSPORT TARKIBI
(2022- yil yanvar-may, mln. AQSh dollari)**

XSST tarkibi	Turkiya		Rossiya		Xitoy		Qozog'iston	
	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.
Jami eksport	14,2	27,2	16,7	17,6	22,7	16,0	6,2	11,3
shu jumladan:								
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	1,0	1,3	0,4	0,5	3,8	10,5	4,4	8,4
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	0,9	0,9	0,1	0,2	0,6	0,1	0,2	0,9
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	0,0	0,0	0,0	0,0	1,6	2,1	0,3	0,1
Sanoat tovarlari	15,5	28,6	12,1	13,1	22,1	4,4	2,9	3,4
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	0,0	0,0	0,3	0,6	0,0	0,0	0,0	0,0
Turli xil tayyor buyumlar	0,0	0,0	7,9	7,8	0,0	0,0	0,1	0,3
Xizmatlar	0,0	0,0	0,2	0,1	0,0	0,0	0,0	0,0

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki Turkiya, Rossiya, Xitoy va Qozog'iston davlatlariga eksportning asosiy ulushi oziq-ovqat maxsulotlari va sanoat tovarlari guruhi hissasiga to'g'ri keladi.


JIZZAX VILOYATIINING IMPORTI (2022- yil yanvar-iyun)

2022-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning importyorlari soni 278 tani tashkil etib, ular tomonidan 240,9 mln. AQSh dollari qiymatidagi (2021-yilning mos davriga nisbatan 189,8 %) tovar va xizmatlar import qilinishi ta'minlandi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (75,5 %) va sanoat tovarlari (7,7 %) guruhi hisobiga to'g'ri keladi.



XSST BO'LIMI BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2022- yil yanvar-iyun, ulushi, % da)



Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 114,0 mln. AQSh dollariga ko'paydi va 240,9 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI
(2022- yil yanvar-iyun, ulushi, % da)

Tarkibi	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mln. AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mln. AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da
Jami import	240,9	189,8	100,0	39,3	2,1 m.	100,0	201,6	185,7	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	14,2	121,9	5,9	10,2	117,4	25,9	4,0	135,3	2,0
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	3,7	3,0 m.	1,6	2,5	13,4 m.	6,5	1,2	114,3	0,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	2,1	2,9 m.	0,9	2,1	3,1 m.	5,3	0,1	88,9	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,2	83,2	0,1	0,2	83,2	0,4	0,0	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	15,9	135,4	6,6	3,6	144,2	9,2	12,3	133,0	6,1
Sanoat tovarlari	18,7	146,4	7,7	8,4	3,0 m.	21,4	10,3	103,0	5,1
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	181,9	2,2 m.	75,5	11,9	4,6 m.	30,2	170,0	2,2 m.	84,3

Turli xil tayyor buyumlar	4,3	59,5	1,8	0,4	60,9	1,1	3,8	59,3	1,9
Xizmatlar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, 2021- yilning mos davriga nisbatan sanoat tovarlari 10,0 % dan 7,7 % ga va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar importining ulushi 9,2 % dan 5,8 % ga kamaydi . Mashinalar va transport asbob-uskunalari importining ulushi esa 64,2 % dan 75,5 % ga oshdi.



IMPORT TARKIBI DINAMIKASI
(2022- yil yanvar-iyun, ulushi, % da)

XSST tarkibi	2020- yil	2021- yil	2022- yil
Jami import	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	1,8	9,2	5,8
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	2,1	1,0	1,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,3	0,6	0,9
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0	0,2	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	4,0	9,3	6,6
Sanoat tovarlari	9,4	10,0	7,7
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	79,2	64,2	75,5
Turli xil tayyor buyumlar	3,3	5,6	1,8
Xizmatlar	0,0	0,0	0,0



XSTT BO'YICHA IMPORT QILINGAN AYRIM TURDAGI MAHSULOTLAR TARKIBI
(2022- yil yanvar-iyun)



Mahsulot nomi	Mln. AQSh dollari	2021-yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	4,2	147,8
Tirik hayvonlar	4,7	74,3
Sut mahsulotlari	0,3	89,1
Meva va sabzavotlar	3,7	11,0 m.
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	0,3	2,8 m.
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	0,7	69,0
Go'sht va g'osht mahsulotlari	0,1	25,7
Ichimliklar va tamaki		
Tamaki va tamaki mahsulotlari	0,0	0,0
Ichimliklar	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Probka va yog'och-taxtalar	0,1	68,2
Metall rudalari va metall parchalari to'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	0,04	210,2 m.
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	0,5	92,8
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	0,8	173,4
Kauchuk va rezina	0,02	7,6 m.
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	0,6	81,5
Ko'mir, koks va briketlar	1,6	29,3 m.
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari	0,0	0,0
Hayvon va o'simlik moylari va yog'lari	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	3,7	111,2
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	2,2	130,1
Birlamchi shakldagi plastmassalar	5,2	2,2 m.
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari	0,3	2,5 m.



Organik kimyo moddalari	0,9	65,8
Kraska va bo'yoq vositalari	0,5	2,8 m.
Noorganik kimyo moddalari	0,9	54,8
Birlamchi bo'lmagan plastik	2,3	2,4 m.
Sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	7,5	2,6 m.
Metalldan tayyorlangan buyumlar	1,6	109,5
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	1,3	82,2
Boshqa joyda tasniflanmagan rezina buyumlari	0,7	137,9
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	6,5	142,1
Rangli metall	0,8	53,1
Qog'oz va karton	0,2	88,8
Yog'ochdan ishlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	0,0	0,2
Mashinalar va transport asbob-uskunalari		
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	77,5	30,0 m.
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	9,9	73,5
Avtomobillar va extiyot qismlari	0,0	0,0
Ish yuritish va ma'lumotlarni avtomatik ravishda qayta ishlash uskunalari	1,2	22,0
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblar va ularning ehtiyot qismlari	4,7	97,5
Elektr aloqasi, ovozni yozish va eshittirish apparaturalari va uskunalari	0,3	25,1
Energogenerator mashina uskunalari	0,3	58,0
Boshqa transport uskunalari	0,0	0,0
Turli xil tayyor buyumlar		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	0,9	24,0
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	1,7	99,3
Har xil tayyor buyumlar	1,5	144,8
Poyafzal	0,0	0,0
Mebel va uning qismlari, yotar-joy buyumlari, matraslar va mebel uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash mahsulotlar	0,02	7,9
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	0,03	22,6



MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-iyun, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



2021- yil bilan taqqoslaganda import bo'yicha eng yuqori oltilikda o'zgarish kuzatilmadi.

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida hamkor mamlakatlarning tovar va xizmatlar importi bo'yicha geografiyasi (2021- yilning mos davriga nisbatan 30 ta davlat) 34 ta davlat bilan amalga oshdi.



**TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTIDAGI YIGIRMATA YIRIK
HAMKOR DAVLATLAR
(yanvar-iyun)**

Davlat nomi	mln. AQSH dollari		Jami importga nisbatan ulushi va o'sish sur'ati % da		O'рни	
	2021- y.	2022- y.	O'tgan yilga nisbatan, % da	Ulushi	2021- y.	2022- y.
Koreya Respublikasi	34,0	77,3	2,3 m.	32,1	2	1
Xitoy Xalq Respublikasi	39,6	47,8	121,0	19,9	1	2
Litva	4,0	42,0	10,5 m.	17,4	6	3
Rossiya	8,2	22,5	2,7 m.	9,3	4	4
Turkiya	15,4	20,5	133,0	8,5	3	5
Qozog'iston	7,4	7,6	102,3	3,1	5	6
Ukraina	0,3	3,4	9,7 m.	1,4	19	7
Germaniya	1,9	3,2	164,3	1,3	9	8
Qirg'iziston	0,8	3,1	3,9 m.	1,3	15	9
Pokiston	0,0	2,2	52,4 m.	0,9	0	10
Hindiston	1,5	1,7	118,0	0,7	11	11
Tojikiston	0,5	1,5	2,9 m.	0,6	18	12
Eron	1,2	1,4	111,4	0,6	12	13
Italiya	0,1	1,0	16,2 m.	0,4	0	14
Belarus	0,9	0,8	83,5	0,3	13	15
Bangladesh	0,9	0,7	85,2	0,3	14	16
Avstriya	0,6	0,6	107,0	0,3	17	17
Gruziya	0,1	0,5	3,8 m.	0,2	0	18
Malayziya	0,0	0,4	0,0	0,2	0	19
Turkmaniston	0,2	0,3	188,6	0,1	0	20



2022 yil yanvar-iyun oylarida import bo'yicha hamkor davlatlar orasida Koreya Respublikasi umumiy import hajmi 32,1 % ulushi bilan birinchi o'rinni egallab, Xitoy Xalq Respublikasini umumiy import hajmida 19,9 % ulushi bilan ikkinchi o'ringa tushirdi.

Yetti yirik hamkor davlatlar Koreya Respublikasi (29,5 %), Xitoy Xalq Respublikasi (22,2 %), Litva (17,4) , Rossiya Federatsiyasi (9,3 %), Turkiya (8,5 %), Qozog'iston (3,1 %), Ukraina (1,4 %) va Germaniya (1,3 %) jami importning 93,1 % ulushini egalladi va 224,2 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilangani sari ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunalar, shuningdek, ularning qismlari importining o'sishi tabiiydir. Shunday qilib Koreya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Litva, Turkiya, Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston davlatlari tomonidan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi
bo'limi
Tel.: (72) 221 51 26
bo'limi**